



FORMS OF MARRIAGE AMONG UZBEKS AND ITS HISTORICAL ROOTS

Nargiza Tarakho'djaeva

Master's student

University of Exact and Social Sciences

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: group marriage, monogamy, ichkuev, antibog, levirate, sororate, kalym, ibbum, traditional marriage, religious marriage, civil marriage, FHDYO, multi-layered marriage.

Received: 19.12.24

Accepted: 21.12.24

Published: 23.12.24

Abstract: This article discusses the types of marriages among Uzbeks, the stages of their historical development and the reasons for them. It also analyzes important aspects of the forms of marriage considered in the article for the lifestyle of people and social life, in a word, their practical significance.

O'ZBEKLARDA NIKOH SHAKLLARI VA UNING TARIXIY ILDIZLARI

Nargiza Taraxo'djayeva

Magistratura talabasi

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalir so'zlar: guruhli nikoh, monogamiya, ichkuyov, qarshi quda, levirat, sororat, qalin, yibbum, an'anaviy nikoh, diniy nikoh, fuqarolik nikohi, FHDYO, tabaqalashgan nikoh

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbeklarda bo'lgan nikoh turlari, ularning tarixan shakllanish bosqichlari hamda sabablari xususida so'z boradi. Shuningdek, maqolada ko'rib o'tilgan nikoh shakllarining kishilarning turmush tarzi va jamiyat hayoti uchun muhim jihatlari, bir so'z bilan aytganda amaliy ahamiyati tahlil qilingan.

ФОРМЫ БРАКА У УЗБЕКОВ И ЕГО ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ

Наргиза Тараходжаева

студент магистратуры

Университет точных и социальных наук

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: групповой брак, моногамия, ичкуев, противобог, левират, сорорат, калым, иббум, традиционный брак, религиозный брак, гражданский брак, FHDYO, многослойный брак.

Аннотация: В данной статье говорится о типах браков у узбеков, этапах их исторического становления и причинах. Также анализируются важные аспекты рассматриваемых в статье форм брака для образа жизни людей и общественной жизни, словом, их практическое значение.

Bugungi kunda zamonaviy nikoh, zamonaviy oila tushunchalari tez-tez tilga olinadigan hodisaga aylandi. Biroq, “zamonaviy”likning qaysi mezonlar asosida belgilanayotganligi borasida yagona xulosaga kelingan emas. Negaki, oila transformatsiyasi, turli fanlarning tadqiqot obyekti bo‘lishi mumkin [1, 23]. Klassik tadqiqotchilar *guruhli nikoh, juft nikoh, monagamiya, poligamiyan* kabi 130 dan ortiq nikoh shakllarini qayd qilingan bo‘lsa, ayrimlari ularni inkor qilgan holda *levirat, sororat, qiz olib qochish, qalinlik nikoh, beshik ketdi, qarshi quda* (qiz almashuv), *ichkuyov, kuch kuyovni* kabi turlarini ta’kidlaganlar [2, 77]. Mazkur nikoh shakkllarining ayrimlari hozirgi kunda o‘z ahaliyatini yo‘qotgan bo‘lsa-da, transformatsiyaga uchrangan yoki yangidan paydo bo‘lganlarini ham uchratish mumkin.

O‘zbeklarda an’anaviy tarzida nikohlarning quyidagi shakllari mavjud bo‘lganligi e’tirof qilinadi: qalinli nikoh, beshik quda (beshik ketdi), qarshi (qaychi) quda, ichkuyov, shu bilan birga, levirat, sororat va boshqalardir. Bunda qalinli nikoh qolganlaridan o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ya’ni, go‘yoki qizning “to‘lovi” qilinadi. Bu odad O‘zbekistonning ba’zi tarixiy etnografik viloyatlarida o‘z ko‘rinishlarini turli ko‘rinishlarga o‘zgartirgan bo‘lsa, ayrim hududlarida hozirgi kunda ham qalin nikohning eng zarur shartlaridan biri sifatida saqlanib qolmoqda. Keyingi nikoh shakllari xususida so‘z ketganda, ulardagi umumiylilik sifatida qalinni inkor qiluvchi turlar sifatida e’tirof qilish mumkin. Z.Rasulovaning tadqiqotlarida ularga berilgan tavsiflardan ma’lum bo‘ladiki, mazkur nikoh shakllarining o‘ziga xosligi qalinni bekor qilishdan iborat. Unga ko‘ra beshik quda yoki beshik ketdi, beshik kerti, quloq tishlar, etak yirtish nomlar bilan ataluvchi odatlarda bolalarning juda erta nikohlanishlari (*atab qo‘yilishi – G.N.*) amalga oshiriladi [2, 78]. Bunda ular ulg‘ayib, nikoh yoshiga yetganlarida shu qilingan amal vositasida oila quradilar. Hech qanday qalinga ehtiyoj qolmaydi. Keyingi yana bir keng tarqalgan nikoh shakli – bu qarshi quda yoki qaychi quda (suyak olmash, qiz almashish) kabi odatlar qalinni bekor qiluvchi odatlar hisoblanadi. Aynan, qarshi quda tushish orqali, ya’ni qiz olingan xonadonga qiz berish bilan ikki oradagi qalin bekor qilinadi. Bu kabi odatlarni ko‘plab xalqlarda mavjud bo‘lib, xususan, O‘rta Osiyo lo‘lilarida ham bu odatlarning keng tarqalganligini ko‘rish mumkin [3, 231]. Ichkuyov (kuch kuyov) odatiga ko‘ra qalin to‘lashga qurbi yetmagan yigitlar qizning otasinikida qalin o‘rniga ishlab berishi kerak bo‘lgan.

Ichkuyov odatiga ko‘ra, oilada o‘g‘il farzand bo‘lmagan hollarda kuyovga kelinning uyida yashash sharti bilan qiz bergenlar. Ichkuyov “kuch kuyov” deb ham atalgan. Bu oilada erkak kuchiga

ehtiyoj bo‘lganligini anglatadi. Bu odatlar O‘rta Osiyoda yashovchi xalqlarning zamonaviy filmlarida ham aks etganligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, yaqin qarindoshlar orasida odatda, iqtisodiy holati yuqori bo‘lmagan qarindoshiga (kuyov tomon nazarda tutilgan) qizini berib, uni qizning uyiga olib kelishgan. Go‘yoki, shu yo‘l bilan o‘z qarindoshlarini moliyaviy qo‘llab quvvatlagan.

Levirat – (*lot. levir – qayni, erving ukasi*) [4] tul xotin o‘lgan erining ukasiga erga tegishi mumkin (ayrim hollarda zarur), ukasi esa, agar u uylanmagan bo‘lsa, unga uylanish mumkin (ba’zida zarur) hisoblangan. Bu odatni yaqin davrlargacha juda ko‘p xalqlarda ommalashganini ko‘rish mumkin edi. Nafaqat O‘rta Osiyo, balki, Yaqin Sharq, Uzoq Sharq, Janubiy Osiyo, Afrika va boshqa hududlarda uchratish mumkin bo‘lgan. N.Shahraniy qирг‘излар орасида ushbu odatning mavjudligini qayd qiladi [5]. O‘zbeklar орасида ham mazkur tartibning, hatto, XX asrning birinchi yarmida ham noodatiy hol bo‘lmaganligi dala tadqiqotlaridan ma’lum [6]. Albatta, bunga urush yillarida ko‘pgina erkaklarning frontlarda vafot etganligi, boquvchisini yo‘qotgan oilalar uchun – bu zarurat hisoblanganligidan bo‘lsa kerak. Turli din vakillarida орасида ham levirat tartibiga ruxsat berilganligini ko‘rish mumkin. Islomda, shuningdek, yahudiylilik, sidhiylik va boshqa ko‘plab dinlarda bu odat mavjud bo‘lgan. Musulmonlarning muqaddas kitobi bo‘lmish Qur’oni Karimda ham qurilishi mumkin bo‘lgan nikohlar ichida marhumning xotini va uning aka-ukasi o‘rtasidagi nikoh ham qayd qilingan [7, 81-82]. Yahudiylilikda esa bu odat – *yibbum* deb farzandsiz vafot etgan erving xotini va uning aka-ukalari o‘rtasidagi nikoh tushunilgan. Biroq keyinchalik bosh ravvinlik bu odatni bekor qilgan. Umuman olganda, aytish mumkinki, bu odatning shakllanishi negizida iqtisodiy omillar yotadi. Levirat tartibi aslida, urug‘-qbilachilik munosabatlariga asoslangan barcha ko‘chmanchi chorvador aholi орасида keng tarqalgan. Chunki, chorvaga umumiyligini egalik qilayotgan jamoa vakillarining орасида har bir a’zo (kichik oila) o‘z ulushiga ega bo‘lgan. Oila boshlig‘ining (er) vafot etishi bilan uning mulklari xotini va farzandlarida qolgan. Agar ayol boshqa turmush qurib jamoadan ketadigan bo‘lsa, o‘ziga tegishli chorvani olib ketishi zarur bo‘lgan. Bunday holatda, mol-mulkning urug‘da saqlab qolishning eng maqbul chorasi – bu levirat tartibi edi [3, 187].

Bular yo‘qolib ketgan bo‘lsa-da, hayotda uchrashi mumkin. Levirat va sororatning ibtidoiy davrdan to shu davrgacha saqlanishi iqtisodiy asoslarga ega bo‘lganligidandir. Bunday nikohda xotin ham, uning bola-chaqalari ham, mol-mulki ham oiladan tashqariga chiqib ketmaydi. Marhumning xotini bilan bolalari, mol-mulki ham qo‘ldan-qo‘lga meros sifatida o‘tgan.

Sororat – (*lot. saror – opa yoki singil + at - nikoh*) er o‘z xotinining odatda singlisi bilan turmush qurishi bo‘lib, buning sharti xotin vafot etgan bo‘lishi yoki bepushtligi isbotlanishi lozim edi [8]. Bu odat o‘zbeklar орасида XX asrning 20-yillarida ham mavjud bo‘lgan. Yuqoridagi nikoh shakllari odatlar orqali amalga oshirilgan. Z.Rasulova o‘z tadqiqotlarida Toshkent shahrida bu odatlarning XX asr 2-yarmidan ancha kamayganligini qayd qilgan [2, 78]. Bu odatning levirat kabi ko‘plab ko‘plab xalqlar va din vakillari орасида keng tarqalganligi ma’lum. Antropologik tahlillar bu

turdagi nikoh ikkala guruh (xotinning oilasi yoki urug‘i va er) o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlaydi va ittifoqchilikni davom ettirish uchun asos bo‘lishini ko‘rsatadi. Inuitlardan tortib kurd xalqlarigacha, xristianlikdan tortib yahudiylit dinigacha bo‘lgan guruhlar orasida sororat odati bo‘lgan. Ulardagi umumiylit sifatida barchasida ham bolalarning kelgusidagi farovonligi maqsad qilinganligini ko‘rish mumkin.

Ichkuyov tartibi o‘tmishda ko‘proq nochor oila vakillariga (yigitlar) nisbatan keng tarqalgan. Ya’ni, qalin to‘lashga qurbi yetmagan yigitlar odatda ichkuyov tushgan. Bugungi kunga kelib esa ichkuyovlikning arning moddiy yordamga muhtoj bo‘lganlikdan, kelin xonodonida o‘g‘il farzandning bo‘lmasligi kabi omillar sabab qilib ko‘rsatiladi. Biroq odat har doim ham ijobiy baholanmaydi. Ichkuyovga nisbatan “omadi kelib tekin uylik bo‘lib qoldi”, “kvartirada siqilib yashardi, endi hovlida maza qilib yuribdi” kabi munosabatlar ham keng tarqalgan [2, 78].

Yuqorida qayd qilinganidek, mazkur nikoh shakllarining aksariyati bugun transformatsiyaga uchragan. Ayrimlari butunlay ahamiyatini yo‘qotgan bo‘lsa, boshqalariga munosabat o‘zgargan. Shulardan, qalin berish holati bugungi jamiyatimizda keng saqlanib qolgan. Odatda bu jarayon ramziy ma’no kasb etib, to‘yning bo‘lish yoki bo‘lmasligida hal qiluvchi masala hisoblanmaydi. Xalq qalinga faqat urf-odatlardan biri deb qarab, o‘tmishdan qolgan meros sifatida unga amal qiladi. Ya’ni ular endi nikoh qurishdagi birlamchi shart-sharoitlarni belgilamaydilar, ular faqat odat bo‘lib qoldi.

Jamiyatdagi o‘zgarishlarga bog‘liq holda nikoh ham, o‘z navbatida, shakllanib, transformatsiyaga uchraydi. Bu o‘zgarishlar sirasiga shaharlashuv, bozor iqtisodiyoti munosabatlarining kishilar turmush tarziga chuqur kirib borishini kiritish mumkin. Nikohning turlari va ularning o‘ziga xosligi bo‘yicha omma orasida keng tarqalgan mulohazalardan kelib chiqib, quyidagi turlarni keltirish mumkin:

An’anaviy nikoh – bu diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan (diniy muassasalarda qayd qilinadigan), davlat tashkilotlari tomonidan ro‘yxatga olinadigan (FHDYO bo‘limlari), jamiyat tomonidan tan olingan hamda ko‘pchilik tomonidan amal qilinadigan nikoh shaklidir.

Diniy nikoh – faqatgina din tomonidan tan olingan bo‘lib, diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh. Musulmonlarda, xususan, o‘zbeklarda diniy xodimning (imom xatib yoki shu ishga mas’ul) nikoh o‘qishi bilan amalga oshiriladigan *shar’iy* nikohdir. Ayrim islomiy davlatlarda diniy nikoh va qonuniy nikoh ayni bir tushunchani anglatadi.

Qonuniy yoki yuridik rasmiylashtirilgan nikoh – Adliya vazirligi tomonidan yuridik tasdiqlangan nikoh shakli bo‘lib, bunda erkak va ayol faqat FHDYO bo‘limidan o‘tish bilan kifoyalanadilar, ammo diniy rasm-rusumlarga amal qilmaydilar. Bu kabi holatlar o‘zbek xalqining e’tiqodidan kelib chiqib, ko‘pincha noodatiy hisoblanadi. Lekin o‘zbeklar orasida nikoh o‘qitmasdan, faqat FHDYO bo‘limidan ro‘yxatdan o‘tishning o‘zini yetarli deb hisoblaydiganlar kam uchraydi.

Fuqarolik nikohi – bu yuqorida ko‘rsatilganidek, na din tomonidan, na davlat tomonidan tasdiqlangan nikoh bo‘lib, bir-birini sinash yo bir-birining erkinliklarini cheklab qo‘ymaslik yoki bo‘lmasa, din va davlat tomonidan yuklatiladigan majburiyatni o‘z bo‘yniga olmaslik maqsadida quriladi.

O‘zbeklarda an’anaviy nikoh bilan bog‘liq odatlar, yangi odatlar ham shakllangan. XX asrning ikkinchi yarmida FHDYoda nikohni yuridik tasdiqlash tantanali ravishda o‘tkaziladigan bo‘ldi. Bu albatta, turli omillar bilan bo‘liq. Birinchi navbatda, sovet hukumatining diniy muassasalarining jamiyat hayotidan uzoqlashtirishga bo‘lgan urinishining natijasi ham deyish mumkin. Chunki, aynan, o‘sha davrlarda qator yangi bayramlar jamiyat hayotiga kirib kelganligini ko‘rish mumkin. Bu odat keyingi davrlarda ommalashib, kichikroq bazm darajasida o‘tkaziladigan tadbir darajasiga yetdi. Axborotchilarining bergen ma’lumotlariga ko‘ra bu bazm kechasi odatda, kuyovning qarindoshlari tomonidan moliyalashtirilgan. Xalq orasi bu “*zagsini tog‘asi ko‘taribdi*”, “*zagsini amakisi ko‘taribdi*” iboralari bilan ifodalangan [9]. Hozirda nikoh to‘yining mazkur qismi transformatsiyaga uchragan. Ba’zi hududlarda bu bazm kechasi umuman bajarilmasa, ayrim joylarda kelinni uyidan olib chiqishgandan so‘ng to‘yxona tayyor bo‘lguncha vaqtini o‘tkazish, so‘nggi yillarda esa yoshlar orasida “fotosessiya”ni amalga oshirish uchun vosita sifatida saqlanib qolmoqda.

Ko‘p xalqlarda bo‘lgani singari o‘zbeklarda ham poligamiya turmush tarzining ajralmas qismi, odatiy hol sanalgan. Hatto, XX asr boshlarigacha ko‘p xotinlilik obro‘ belgisi hisoblanib, asosan, o‘rtta va boy qatlam vakillari tomonidan amal qilingan. Bu odatning jamiyat hayotida keskin kamayishi, barcha an’analarga qarshi kurash bo‘lgan yillarda, eskilik sarqiti, milliylikning o‘ziga xos belgisi sifatida cheklanganligi bilan bog‘liq. Biroq, bu mazkur jarayonning butunlay kishilar turmush tarzidan yo‘qolib ketganligini anglatmaydi. Hatto, hozirgi kunga qadar oz bo‘lsa-da, bunga guvoh bo‘lish mumkin. Ko‘pincha bu holatning sodir bo‘lishiga jamiyatdagi jinslararo nomutanosiblik sabab bo‘lgan. Jumladan, Ikkinci jahon urushi yillarda bu yaqqol namoyon bo‘lgan [10, 35]. Bunda ko‘pincha boquvchisini yo‘qotgan yosh juvonlar qayta turmush qurishga majbur bo‘lganlar.

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, jamiyatda ko‘p xotinlikning bo‘lishi turli xalqlarga xos bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, Beruniyning yozishicha hindlarda ham to‘rtta xotin olishga ruxsat berilgan. Hindlarda xotinlarning soni tabaqaga bog‘liq hisoblangan. *Braxman* – to‘rtta, *kshatriy* – uchta, *vayshya* – ikkita, *shudra* – bitta xotin olishi mumkin bo‘lgan. Faqat xotinlarning biri o‘lganda erkakka yana bir bor uylanishga ruxsat berilgan. Lekin er o‘lsa xotin yana turmushga chiqishga haqqi yo‘q edi. Unda faqat ikki yo‘l bo‘lgan: yo bir umr yolg‘iz o‘tish yo o‘zini-o‘zi yoqib yuborish. Odatda oxirgisi afzal ko‘rilgan [11, 410-411]. Bir so‘z bilan aytganda, poligamiya deyarli barcha xalqlar boshidan kechirgan jarayon hisoblanadi [2, 85]. Bu ma’lumotlar, ko‘p xotinlilikning aynan islom dini bilan bog‘liq degan tushunchalarni inkor qiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, nikoh shakllarining xilma xil bo‘lganligi, kishilik jamiyati hayotida o‘zgarishlar bo‘lganligini anglatadi. Chunki, yuqoridagi mulohazalardan ma’lum bo‘ladiki, har bir nokoh shaklining shakllanishi kishilar tomonidan duch kelayotgan ehtiyojlaridan kelib chiqqanligini ko‘rsatmoqda. Shuning uchun ham qachonlardir odamlar uchun zarur hisoblangan nikoh shakllari vaqtlar o‘tishi bilan o‘z ahamiyatini yo‘qotgan yoki transformatsiyaga uchragan. Bunga ta’sir etuvchi omillar sifatida ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi, din, madaniyat bilan bog’liq o‘zgarishlarni qayd qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Science and Education” Scientific Journal / ISSN 2181-0842 December 2021 / Volume 2 Issue 12.
2. Расулова З.А. Замонавий ўзбекларнинг оила-никоҳ муносабатлари. – Тошкент, 2013.
3. Anarkulov S.M. Etnologiya. – Toshkent: Universitet, 2024.
4. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/levirate>
5. https://en.wikipedia.org/wiki/Levirate_marriage
6. Dala qaydlari. Toshkent shahri, 2024-yil oktyabr
7. Шайх Абдулазиз Мансур. Қурони Карим маъноларининг таржимаси ва тафсири. – Тошкент: Тошкент Ислом университети, 2009.
8. <https://www.allwords.com/word-sororate+marriage.html>
9. Dala qaydlari. Toshkent shahri, 2024-yil noyabr
10. Тохтаходжаева М. Утомленные прошлым. Реисламизация общества и положение женщин в Узбекистане. – Ташкент, 2001.
11. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. 2-Том. – Тошкент: Фан, 1965.